



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQALASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasining
90 yilligiga bag‘ishlab**

**«NUTRITSIOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

TEZISLAR TO‘PLAMI



TOSHKENT, 27-28 MART 2026-YIL

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrası tashkil topganiga 90 yil to'lishi munosabati bilan "Nutritsiologiyaning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to'plamini to'plash va nashr qilishga tayyorlashda professorlar N.J.Ermatov, D.Sh.Alimuxamedov, t.f.d., dotsent N.M.Mamatova, PhD, dotsentlar B.B.Ortiqov, E.M.Bo'riboyev va assistentlar K.R.Eshkuvatov, I.A.Uluknazarovalar ishtirok etishdi.

AHOLI ORASIDA ENDOKRIN KASALLIKLARINI ANIQLASHNING GIGIYENIK JIHATLARI

*Yusupov O.P., Sobirov O.G.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

Muammoning dolzarbligi. Aholi orasida sogʻlom turmush tarzining izdan chiqishi qator ovqatlanish bilan bogʻlik xastaliklar bilan birgalikda, endokrin tizmi kasalliklaridan yod tanqislik holati va qandli diebet va uning asoratlarni shakllanishiga olib kelishi qator mualliflarning ishlarida qayt qilingan.

Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining maʼlumotlariga koʻra yod tanqislik holati bilan 1,5 milliard inson xastalangan boʻlsa, endemik buqoq 665 mln, birlamchi gipotireoz 3,6-4,7 % aholida qayt etiladi.

Bugungi kunda jahonda qandli diabet bilan xastlanganlar soni kun sayin ortib bormoqda.

Qandli diabet bilan xastalangan bemorlarda yurak ishemik kasalligi rivojlanish xavfi 2-4 marta, oʻtkir miokard infarkti rivojlanish xavfi esa 6-10 marta yuqoriligi ham qayt qilingan va bu borada profilakti ishlarni bajarish soha xodimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi qishloq sharoitida birlamchi tibbiyot muassasalarida endokrin kasalliklarni tashxislashning gigiyenik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot material va usullari sifatida Toshkent viloyati Qibray tumani Jambul qishloq oilaviy poliklinika, Fargʻona viloyati Uchkoʻprik tumani «Yakka mulla» oilaviy shifokorlar poliklinikalarida qayt qilingan bemorlar nazorat ostiga olingan. Olingan natijalar statistik tahlildan oʻtkazildi.

Olingan natijalarning tahlili. Nazorat ostiga olingan qishloq aholisi orasida 515 nafar bemorda qalqonsimon bez kattalashgani aniqlangan va ularni ultratovush tekshiruviga yuborilgan.

Tekshiruvga yuborilgan qishloq sharoitida yashaydigan 422 nafar qishloq aholisi qalqonsimon bezini ultratovush tekshiruvidan oʻtkazilgan boʻlib, ulardan qalqonsimon bezning kattalashganligi tashxislangan 165 nafar qishloq aholisi QB gormonlari proflini aniqlash uchun qonni biokimyoviy tekshiruviga yuborildi.

Nazorat ostiga olingan Fargʻona viloyati Uchkoʻprik tumanidagi Yakkamulla oilaviy poliklinikada 790 nafar patsiyentlarning erkaklar 509 nafarni (64%) va ayollar 281 nafarni (36%)ni, Jambul OPda 301 nafarni (59%) va ayollar 209 nafarni (41%)ni tashkil qilgan.

Qishloq sharoitida Yakkamulla QOP da gipotieroz 11 nafar (0,18%), semizlik 7 nafar (0,12%), yod yetishmasligi 116 nafar(1,93%), qandli diabet 16 nafar(0,37%) ni, Janbul QOP da esa gipotieroz 7 nafar (0,11%), semizlik 24 nafar (0,37%), yod yetishmasligi 148 nafar(2,27%), qandli diabet 27 nafar(0,41%) ni tashkil qilganligi aniqlangan va bu borada zudlik bilan samarali tashxislash va davolash taktikasini tanlash zarur.

Xulosa. Tashxislangan patsiyentlar orasida sogʻlom turmush tarziga rioya qilinmaganligi, sogʻlom ovqatlanish mezonlarning izdan chiqqanligi, ratsion tarkibidagi oliy navli non mahsulotlarining keskin ortiganligi, uy sharoitida va ish joylaridagi zoʻriqishlar, kun davomidagi gipodinamik holatlar, tibbiy xodimlarning kerakli tahlillarni amalga oshirmaganligi kabi holatlar aholi orasida qishloq sharoitida endokrin kasalliklarning ortishga sharoit yaratgan.

Ushbu holatlarning oldini olish va xastalikning asoratlarni kamaytirish maqsadida birlamchi tizimning faoliyatini kuchaytirish, shifokorlarning bilim koʻnikmalarini kuchaytirish, birlamchi tizimida qondagi qand miqdorini aniqlash zarur gigiyenik jihatlardan biri hisoblanadi

95.	<i>Saidova G.T., Rajabova L. Maktab o'quvchilari orasida bullingning oldini olish vositasi sifatida raqamli savodxonlik</i>	108
96.	<i>Suyunova G.Q. Organizm quvvat sarfini aniqlashning yangi turlari</i>	109
97.	<i>To'rayeva M.Q. Onkologik kasalliklarda ovqatlanishning ahamiyati</i>	110
98.	<i>Tursunova N.A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ovqatlanishining gigiyenik talablari</i>	111
99.	<i>Tursunova S.A. Aholi o'rtasida alimentar bog'liq kasalliklarning xavf omillarini gigiyenik baholash va profilaktikasi</i>	112
100.	<i>Tursunbayev J.A. Tajribaviy gidronefroзда buyrak yukstraglomerulyar apparatining morfometrik ko'rsatkichlari</i>	113
101.	<i>Xaqberdiyev X.R., Jo'rayeva G.A., Mamasaxatova D.M. Nutritsiologiyaga kirish va uning qisqacha tarixi</i>	114
102.	<i>Xayitov J.B., Shayxova G.I. Xususiy va davlat maktab o'quvchilarining kasallanganlik holatini o'rganish natijalari tahlili</i>	115
103.	<i>Xayitov J.B., Shayxova G.I. Xususiy va davlat ta'lim muassasalarida haqiqiy ovqatlanish statusini gigiyenik tahlili</i>	116
104.	<i>Xolbekov B.B., Pardaev O.B. Ovqatdan zaharlanish va uning inson salomatligiga ta'siri</i>	117
105.	<i>Shatursunova M.A. Alloksanli diabetli kalamushlarda metabolik va bo'g'im morfologik o'zgarishlari</i>	118
106.	<i>Beisbekova K.S., Bissenova A., Maratbekova A. Consumption of energy drinks and their impact on sleep quality among medical university students</i>	119
107.	<i>Eshkuvatov K.R., Zaydullin A.Sh. Features of first medical aid in poisoning by chemical warfare agents</i>	120
108.	<i>Janbatyrova A., Kalmurat A. Irregular eating patterns as a factor of stress and metabolic disorders among students in urban environments</i>	121
109.	<i>Kutliev J., Akhadov A., Aripova D. Optimization of preventive measures for digestive diseases in military personnel</i>	122
110.	<i>Kutliev J.A., Ibragimov A.M., Akhadov A. Hygienic assessment of the nutritional status indicators of cadets and private soldiers</i>	123
111.	<i>Sultan Zh.N., Beisbekova A.K., Kainarbaeva M.S. Limitations of nutritional approaches in women's mental health: toward an integrative prevention model</i>	124
112.	<i>Yusupov O.P., Turdiev X.X., Sagdullaev I.I., Sobirov O.G'. Birlamchi tibbiyot muassasalarida shahar sharoitida endokrin kasalliklarni tashxislashning gigiyenik xususiyatlari</i>	125
113.	<i>Yusupov O.P., Sobirov O.G'. Aholi orasida endokrin kasalliklarini aniqlashning gigiyenik jihatlari</i>	126
114.	<i>Ахмадалиева Н.О., Нормуродов Д.И., Толибжанова М.А. Особенности питания студентов и их влияние на состояние здоровья</i>	127
115.	<i>Ахунжанов Б.З., Самадов Д.С., Сайфиддин Хожжи Х.К. Оценка пищевого поведения студентов и его связь с факторами риска метаболического синдрома</i>	128
116.	<i>Ахмедова С.Т., Эрматов Н.Ж., Алимухамедов Д.Ш., Турдиев Х.Х. Гигиеническая оценка качества питьевой воды и её влияние на инфекционную заболеваемость населения Сурхандарьинской области</i>	129
117.	<i>Беисбекова А.К., Ергешбаева Р.Б., Абдукаримова А., Алиаскарбеккызы У., Уразалиева Н. Роль кишечной микробиоты в регуляции метаболических процессов и влияние факторов питания</i>	130